Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
<i>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</i>	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
<i>Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
<i>G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi</i>	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
<i>Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
<i>Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
<i>Iminova Z. B.</i>	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
<i>Inayatova Nargisa Nishonboyevna</i>	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
<i>Kalmuratovna Venera Sultanova</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
<i>Kamola Abdullayeva</i>	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
<i>Karimov Orif Obloqul o'g'li</i>	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
<i>Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</i>	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
<i>Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
<i>Makulov Shuxratjon Zokirovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
<i>Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
<i>Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
<i>Mansurova Umida Mansur qizi</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
<i>Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
<i>Murodov Nozimjon Olimjonovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
<i>Nafasova Jamila Turg'un qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
<i>Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</i>	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
<i>O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</i>	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
<i>Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</i>	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
<i>Ostanov Askarjon Nuriddinovich</i>	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati ..	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	

BO'LAJAK MUHANDISLARNING ILMIY-TADQIQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xuramova Farangiz Uchqun qizi

Jizzax politexnika instituti

"Kompyuter va dasturiy injinering" kafedrası dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-8851-1336

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak muhandislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur bo'lgan omillar, didaktik talablar hamda ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, texnologik amaliyot, bitiruv malakaviy ishlar va mustaqil ta'lim jarayonlarida amalga oshiriladigan ishlar tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda o'qituvchilarning kasbiy saviyasini saqlab qolishning muhim sharti sifatida baholanadi. Mazkur maqolada shuningdek o'quv materialini mazmunini loyihalashda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tamoyillar – ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ketma-ketlik, insonparvarlik, faollik, uzviylik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, ijodkorlik tamoyillari asoslab beriladi. Muhandislik ta'limi yo'nalishida tadqiqotchilik ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun majmuaviy yondashuv zarurligi psixologik-pedagogik manbalar tahlili asosida asoslanadi.

Kalit so'zlar: tadqiqot, muhandislik, omil, tamoyil, ko'nikma, tadqiqotchilik faoliyati.

Abstract: This article examines the factors and didactic requirements necessary for the gradual development of research skills among future engineers. It analyzes educational components such as lectures, laboratory work, practical classes, technological practice, final qualification projects, and independent student activities. Integrating scientific research into the educational process is identified as a crucial condition for maintaining teachers' professional competence and ensuring that university graduates acquire essential research skills. The paper also substantiates key principles for designing educational content that supports the formation of research competencies, including scientificity, systematization and consistency, continuity, human-centeredness, active learning, coherence, consideration of students' age and individual characteristics, and creativity. Based on the analysis of psychological and pedagogical sources, the study concludes that a comprehensive approach is required to effectively develop research skills in engineering students.

Key words: research, engineering, factor, principle, skill, research activity.

Аннотация: В статье рассматриваются факторы и дидактические требования, необходимые для поэтапного формирования исследовательских навыков у будущих инженеров. Анализируются формы организации учебного процесса, такие как лекции, лабораторные и практические занятия, технологическая практика, выпускная квалификационная работа и самостоятельная деятельность студентов. Внедрение научных исследований в образовательный процесс определяется как важное условие подготовки выпускников, обладающих исследовательскими компетенциями, а также поддержания профессионального уровня преподавателей. Кроме того, обоснованы принципы разработки содержания учебного материала, направленного на формирование исследовательских навыков: научность, системность и последовательность, преемственность, гуманистичность, активность, взаимосвязанность, учет возрастных и индивидуальных особенностей, творческая направленность. На основе анализа психолого-педагогической литературы доказывается необходимость комплексного подхода к формированию исследовательских навыков будущих инженеров.

Ключевые слова: исследование, инженерия, фактор, принцип, навык, исследовательская деятельность.

KIRISH

Mamlakatimizda ilmiy–texnika taraqqiyoti inson faoliyatining barcha sohalarida, jumladan ta'lim tizimida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirib, uzluksiz takomillashuv jarayonini ta'minlamoqda. Zamonaviy ilmiy–texnika taraqqiyoti nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasida, balki faoliyatning barcha yo'nalishlarida ijobiy yangilanishlarga sabab bo'lmoqda. Hozirgi davr mehnat bozori mutaxassislaridan umumta'lim va kasbiy bilimlarning yuqori darajasini, puxta maxsus tayyorgarlikni, moslashuvchan tafakkurni hamda tadqiqotchilik va izlanuvchanlik qobiliyatini talab etmoqda.



Ilmiy–texnika taraqqiyotiga xos jihatlardan biri axborotning muntazam yangilanib borishidir. Shu bois jamiyatga tezkor axborot oqimini tahlil qila oladigan, zarur ma'lumotlarni asosli tarzda tanlab oladigan, mavjud echimlarni solishtirib eng maqbul variantlarni aniqlay oladigan, mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilishga qodir malakali kadrlar zarur. Bugungi rivojlanish bosqichida ijrochilik kagina tayanish emas, balki innovatsion fikrlashga ega, yangi g'oya va takliflarni ilgari sura oladigan mutaxassislar jamiyat taraqqiyotida yetakchi o'rin tutadi.

Entsiklopedik manbalarda "omil" atamasi "biror jarayon yoki hodisaning xususiyatini belgilovchi sabab, harakatlantiruvchi kuch" sifatida talqin etiladi. Shuningdek, "omil – jarayon yoki hodisaning muhim holatini belgilovchi omillar majmui" deb ham izohlanadi. Mazkur tushuncha tadqiqot jarayonlarida sababiyatni aniqlash, jarayonlarning rivojlanish dinamikasini baholash hamda ularning ta'sir doirasini ilmiy asosda yoritishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonlik olimlar tomonidan tuzilgan pedagogika fanining izohli lug'atida "omil" tushunchasi muayyan guruhga kiruvchi ikki yoki undan ortiq boshlang'ich sababdan tashkil topgan ahamiyatli sabab sifatida izohlangan. Pedagog olim V.A. Mijerikov tomonidan yaratilgan psixologik–pedagogik lug'atda esa "pedagogik omil – boshqa bir hodisaning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan har qanday pedagogik hodisa" tarzida talqin etiladi. Turli pedagogik manbalarni chuqur tahlil qilgan I.P. Podlaso'y "omil – bu bir guruhdagi kamida ikki alohida sababdan tashkil topgan umumiy sababdir" degan ilmiy xulosani bildiradi. Elementar sabablar didaktik jarayon davomida o'zgarishi, turli qiymatlarni qabul qilishi va ta'sir jadalligining doimiy emasligi ushbu jarayonning murakkab tabiati bilan izohlanadi.

Shu munosabat bilan omil sabablar majmuasidan tarkib topadi, yagona omillar birlashmasidan umumiy omillar vujudga keladi, umumiy omillar esa birgalikda majmuaviy omillarni shakllantirib, ular o'z navbatida didaktik jarayonning asosiy tarkibiy tuzilmasini belgilovchi bosh omillarni hosil qiladi. Shuningdek, ayrim o'ziga xos omillar mavjud bo'lib, ularni ma'lum sabablar tufayli umumiy yoki majmuaviy omillar qatoriga kiritish imkoniyati mavjud emas. I.N. Podlaso'y didaktik jarayonning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi to'rtta asosiy omilni ajratib ko'rsatadi: o'quv materiali, tashkiliy–pedagogik ta'sir, talabalarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi hamda vaqt omili. Ushbu omillar bo'lajak muhandislarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida ham o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

I.P. Podlaso'y mazkur omillarni maktab ta'limi sharoitida qo'llanilishiga ko'ra tizimlashtirgan bo'lsa-da, talaba ham o'quvchidir, faqat yosh va kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'ra farqlanadi. Shu sababli, bo'lajak muhandislarni o'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni hisobga olgan holda, mazkur omillar ma'lum darajada moslashtirilgan tarzda qo'llanishi, tadqiqotning ilmiy–amaliy maqsadlariga xizmat qilishi mumkin. Bu yondashuv ta'lim jarayoniga yanada chuqurroq integratsiya qilinadigan tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay ilmiy–metodik asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, bo'lajak muhandislarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni hamda uning natijalariga bir qancha asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular – o'quv materiali, tashkiliy–pedagogik ta'sir, talabalarning o'qitilishi va o'zlashtirish darajasi hamda vaqt omilidir. G. Gett va A.M. Plutok fikrlariga ko'ra, ustaxonalaridagi o'quv amaliyotlari, maxsus fanlar bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar va laboratoriya jarayonlari davomida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar butun ta'lim davri mobaynida maqsadga yo'naltirilgan holda olib borilishi lozim. Talabalar texnik ijodkorligini rivojlantirishda majmuaviy yondashuvning ahamiyati V.P. Tigrov tomonidan ham ta'kidlanadi; uning fikricha, muhandislik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar texnik ijodiy faoliyatga birinchi kursdan boshlab bosqichma-bosqich jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak muhandislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun oliy ta'lim muassasasidagi muhandis–pedagogning tadqiqotchilik faoliyatiga talabalar munosabatini aniqlash muhimdir. Bu jarayon talabalarda mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmuni, usullari, shakllari va bosqichlarini belgilash imkonini yaratadi. Tadqiqotning dastlabki bosqichlarida talabalar o'rtasida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati o'rganildi. Izlanuvchi eksperiment jarayonida muhandislik ta'lim yo'nalishlari 3–4-kurs talabalari orasida ularning kelajak kasbiy faoliyatida tadqiqotchilik ko'nikmalariga berayotgan bahosi tahlil qilindi. Yopiq turdagi anketa so'rovlari (talabalar soni ... nafar) orqali ularga quyidagi savolga javob berish taklif etildi: "Sizning fikringizcha, muhandisning kasbiy va pedagogik



shakllanishida tadqiqotchilik ko'nikmalari va malakalarining ahamiyati qanday?" Javob variantlari sifatida uchta tanlov taklif qilindi:

- birinchisi – tadqiqotchilik ko'nikmalarini bo'lajak muhandis tayyorlash jarayonida alohida shart sifatida ajratish zarur emasligi;
- ikkinchisi – tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bo'lajak muhandisning pedagogik va kasbiy faoliyatga tayyorgarligida muhim shartlardan biri ekanligi;
- uchinchi esa – tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bo'lajak muhandisning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur va asosiy shart sifatida baholanishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot obyektiga bo'lgan munosabatning uchta asosiy ko'rinishi – ijodiy, neytral va konstruktiv yondashuvlar aniqlangan bo'lib, so'rov natijalari jadval ko'rinishida umumlashtirildi. Ushbu jadvalda talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallash jarayoniga nisbatan bildirgan fikrlari hamda muhandisni pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim sharti sifatida ushbu ko'nikmalarga bergan baholari aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval: Talabalarining tadqiqotchilik faoliyatiga munosabati

Talabalarining munosabati	O'qitish kurslari, talabalar soni				O'rtacha
	1-kurs (74 kishi)	2-kurs (72 kishi)	3-kurs (68 kishi)	4-kurs (65 kishi)	
1-Ijodiy	63.2%	64.4%	71.4%	72.3%	67,7%
2-Neytral	28.6%	28.6%	24.1%	21.7%	25.7%
3-Salbiy	8.2%	7.0%	4.5%	6.2%	6.6%

Jadvalda aks ettirilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak muhandislarning pedagogik faoliyatida tadqiqotchilik ko'nikmalarining ahamiyatini baholash kursdan kursga o'tgan sari o'rtacha oshib borgan. Xususan, birinchi kursda ijobiy fikr bildirganlar ulushi 63.2 % ni tashkil etgan bo'lsa, to'rtinchi kursga kelib bu ko'rsatkich 72.5 % ga yetgan. Talabalarining 25.7 % tadqiqotchilik ko'nikmalari va malakalarining kasbiy ahamiyatini o'rtacha darajada baholagan, 6.6 % talaba esa mazkur ko'nikmalarining ahamiyatini hali to'liq anglab yetmaganini bildirgan. Bu esa talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarining mazmuni va vazifalarini yanada samarali tushuntirish zarurligini anglatadi.

“Siz tadqiqotchilik ko'nikma va malakasi deganda nimani tushunasiz?” degan savolga talabalarining 72 % mustaqil izlanuvchanlik, tajribalar o'tkazish va ijodiy faoliyatni tushunganini bildirgan. 15 % talaba tadqiqotchilikni ixtirochilik va yaratuvchanlik sifatida talqin qilgan, 5 % loyihachilik bilan bog'lagan, 7 % esa mazkur tushuncha bo'yicha aniq tasavvurga ega emasligini qayd etgan. Demak, birinchi kursdanoq talabalarga tadqiqotchilik ko'nikmalarining kasbiy-pedagogik ahamiyatini yoritib berish, ularni o'quv jarayonida bosqichma-bosqich shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir.

O'tkazilgan tajriba natijalari talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallashga bo'lgan munosabati murakkab va turli qirrali ekanini ko'rsatdi. Tadqiqotda talabalarining o'rganishga bo'lgan faolligi, qiziqishi va ehtiyoji aniq kuzatildi. Bugungi kunda jamiyatning ustuvor ehtiyojlaridan biri – o'z fanini chuqur biladigan, tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega, pedagogik texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan malakali kadrlarni tayyorlashdir.

Tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan guruhlarda maxsus fanlar bo'yicha 50 dan ortiq mashg'ulot tahlil qilinib, muhandislarning tadqiqotchilik ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishga oid bilimlarining talabalarining ushbu jarayonni tushunishlariga ta'siri mavjudligi aniqlangan. Masalan, so'rovda ishtirok etgan birinchi kurs talabalari orasida 62.6 %, ikkinchi kurs talabalari orasida esa 54.2 % tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiruvchi faoliyatlarni bajarishni muhim va majburiy deb hisoblagan. Mustaqil ish sifatida bajarilishi kerakligini talabalarining 16 % ijobiy baholagan, muhandislarning 29.2 % esa bu fikrni qo'llab-quvvatlagan. Talabalarining 12 % muntazam ravishda tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanish zarurligini qayd etgan bo'lsa, o'qituvchilarning 42 % ham bu fikrga qo'shilgan. Yaxshi kasbiy bilimlarni egallash uchun tadqiqotchilik faoliyatini olib borish va o'qishga nisbatan faollik namoyon etish zarurligini 6 % talaba alohida ta'kidlagan.

Mazkur muammo oliy ta'lim muassasasidagi muhandis–pedagog tomonidan talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga kompleks yondashuv qo'llanilganda muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin. Birinchi kursda o'rganiladigan asosiy fanlarning nazariy materialiga qo'shimcha ravishda maxsus ishlab chiqilgan metodik materiallar yordamida talabalar tadqiqotchilik faoliyatining mazmuni, bosqichlari, tahlil va sintez kabi amaliy ko'nikmalar bilan tanishtiriladi.

Ikkinchi kursda o'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarni ishlab chiqarish faoliyatiga xos bo'lgan tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Bu bosqich amaliy



o'quv materiallaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etish, natijalarni tahlil qilish va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik yondashuvini shakllantiradi. Talabalarga bir xil masalani turli usullarda bajarish mumkinligi, eng maqbul usulni tanlashdan oldin iqtisodiy, texnologik va estetik jihatlarni tahlil qilish zarurligi amaliy misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Uchinchi kursda talabalarni pedagogika va psixologiya sohasida tadqiqotlar o'tkazishning o'ziga xosligi bilan tanishtirish lozim. Psixologik–pedagogik blok fanlarini o'qitish jarayonida muammoli o'yin texnologiyalari, mustaqil izlanishni talab etuvchi faol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha, pedagogik amaliyotdan avval o'qitishning ushbu bosqichida ishlab chiqarish ustaxonalaridagi amaliy ta'lim bilan pedagogika va psixologiya fanlari nazariyasini integratsiyalash talabalar tadqiqotchilik tayyorgarligini yanada kuchaytiradi. Ushbu jarayonni o'quv ustaxonalarida roli o'yinlarni tashkil etish orqali takomillashtirish mumkin. Bunda talaba muhandis rovida faoliyat yuritib, tengdoshlariga dars berar ekan, uning kasbiy–pedagogik malaka va tadqiqotchilik ko'nikmalari shakllanishi bosqichma-bosqich kuchayadi. Bunday mashg'ulotlar talabaning pedagogik tayyorgarligini mustahkamlash barobarida, uning kelajakdagi real kasbiy tadqiqotchilik faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratadi.

To'rtinchi kursda pedagogik amaliyot o'tash jarayonida talabalar ta'lim olishning yangi bosqichiga o'tib, o'z kasbiy faoliyatiga tashqi kuzatuvchidan emas, balki ichki ishtirokchi sifatida qaray boshlaydilar. Bu davrda ular egallagan bilimlarni real amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'lib, kelgusidagi kasbiy faoliyatga nisbatan ongli munosabat shakllantiradilar. Bizning fikrimizcha, ushbu bosqichda o'qitish jarayonini mavjud o'zgarishlarni hisobga olgan holda kasbiy tadqiqotchilik bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Aynan shu davrda talaba oldiga mustaqil ishlab chiqiladigan pedagogik muammo qo'yilishi zarur bo'lib, u keyinchalik bitiruv malakaviy ishining mazmunini belgilab beradi. Bitiruv malakaviy ishi doirasida pedagogik tadqiqot o'tkazish bo'lajak muhandisning bilim, ko'nikma va malakalarini ongli egallashning asosiy bo'g'ini sifatida xizmat qilishi lozim. Shunday ekan, tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishi yanada samarali bo'ladi, agar talaba ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay bilsa.

Tadqiqotchilik ko'nikmalarini amaliy malakaga aylantirish imkonini beruvchi bitiruv oldi amaliyoti bo'lajak muhandislar tayyorlashning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish esa muhandis-tadqiqotchini tayyorlash jarayonining mantiqiy yakuni bo'lib, bunda talaba o'z tadqiqot natijalarini kasbiy faoliyatda qo'llay olishini namoyon etadi. Shu bois biz quyida bo'lajak muhandislarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni yoritamiz.

- **Birinchi omil – o'quv materiali.** O'quv materialini taqdim etish jarayonida ilgari o'rganilgan bilimlar yangi ma'lumotlar, bog'lanishlar va aloqa elementlari bilan boyitilgan holda bir necha bor takrorlanishi, ta'lim oluvchining muammoni tushunishi bilan bog'liq bilimlar doirasining bosqichma-bosqich kengayishi va chuqurlashuvi ta'minlanishi, o'quv mazmunining alohida qismlari turli usullar orqali bayon etilishi maqsadga muvofiqdir.
- **Ikkinchi omil – tashkiliy–pedagogik ta'sir.** Bu omil auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar majmuasidan iborat bo'lib, talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi.
- **Uchinchi omil – talabalarining o'qitilishi va o'zlashtirish darajasi.** Talabalarining o'qitilganligi deganda ajratilgan vaqt ichida belgilangan o'quv natijalariga erishish imkoniyatlari, shuningdek, ularning o'qishga bo'lgan qobiliyati nazarda tutiladi. Bu omil auditoriyada amalga oshiriladigan o'qitish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish talabalarining umumiy tayyorgarlik darajasi, psixofiziologik xususiyatlari, fikrlash qobiliyati, izlanishga bo'lgan qiziqishi, tadqiqotchilik faoliyatining maqsadini anglash darajasi, bilimlarni o'zlashtirish sur'ati, shuningdek, sog'lig'i, hayotiy tajribasi va intizomiy mas'uliyati bilan bevosita bog'liqdir.
- **To'rtinchi omil – vaqt.** Tadqiqotchilik faoliyatiga ajratilgan vaqt auditoriya mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari o'quv faoliyatida farqlanadi. Auditoriyada vaqt bilimlarni idrok etish, dastlabki o'zlashtirish, o'quv materialini mustahkamlash, nazorat va takrorlash ishlarini amalga oshirish, topshiriqlarni bajarish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini qo'llash jarayonlariga sarflanadi. Auditoriyadan tashqari faoliyat esa mustaqil topshiriqlarni bajarish, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, fakultativ mashg'ulotlar va to'garaklarda ishtirok etish orqali talabaning tadqiqotchilik ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.
- **Beshinchi omil – o'qitishning kasbga yo'naltirilganligi.** O'qituvchining asosiy vazifasi o'qitish, tarbiyalash va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bilan birga, talabalarining ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish va boshqarishdan iboratdir. O'qituvchi o'qitish jarayonini to'g'ri yo'naltirib, unga rahbarlik qilishi hamda talabalar kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga sharoit yaratishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabani kasbiy tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayonida o'qitishni shunday tashkil etish zarurki, bunda u oliy ta'lim muassasasida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini nafaqat o'quvchilarga yetkazsin, balki ularni kasbga yo'naltirish, mustaqillik, tashabbuskorlik va erkin fikrlashga yo'naltira olsun. Haqiqiy pedagog-mutaxassis o'quv-tarbiyaviy jarayonda go'yo "kadr ortida" bo'lgandek tuyuladi, ya'ni jarayon tashqi tomondan talabalarning erkin faoliyati asosida kechadi, ammo aslida o'qituvchi ularning harakatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi boshqaruvchi rolini bajaradi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar va mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida bo'lajak muhandislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanish samaradorligi yetti omilning majmuaviy ta'siri bilan belgilanadi, degan xulosaga kelindi. Ushbu omillarning ta'sir kuchi va o'zaro nisbatini aniqlash eksperimental tekshiruvlar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida turli omillarning bo'lajak muhandislarning tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga harakat qilindi.

Bu jarayonni ilmiy asosda baholash uchun tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanganlik va rivojlanganlik darajasini belgilovchi aniq mezonlar va bosqichlarni aniqlash zarur. Mazkur yondashuv bo'lajak muhandislarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayonini puxta ilmiy asoslash, uni tizimli baholash hamda amaliyotga samarali tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Атутов П.Р. Всестороннее развитие и профессиональная подготовка учащихся // Советская педагогика. – М., 1987. – №3. – С. 36–41.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебное пособие. – Ростов н/Д.: Изд-во "Феникс", 1997. – 480 с.
3. Морева Н.А. Основы педагогического мастерства. – М.: Просвещение, 2006.
4. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студентов пед. вузов: В 2 кн. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1999. – Кн. 1: Общие основы процесса обучения. – 576 с.
5. Xuramova F.U. Talabalar muhitida mobil texnologiyalardan foydalanish // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, ilmiy-nazariy jurnal. – 2024-yil, 3-son.
6. Xuramova F.U. Mobil texnologiyalardan foydalanib ta'lim jarayonini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari // O'zMU Xabarlar jurnali. – 2024-yil, 1-son.
7. Xuramova F.U. Mobil texnologiyalar yordamida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi // Ta'lim, fan va innovatsiya, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. – 2024-yil, 2-son.
8. Xuramova F.U. Bo'lajak muhandislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish dasturini ishlab chiqish // Kasb-hunar ta'limi, ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. – 2024-yil, 2-son.
9. Xuramova F.U. Bo'lajak muhandislarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar // Tashkent International Congress on Modern Sciences – III.
10. Eshonqulov Sh.U., Xuramova F.U. Mobil texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion o'qitish usullari // O'zbekiston rivojlanish taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni: Respublika ilmiy konferensiyasi. – Toshkent, 2024-yil. – B. 350–352.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.